

O'roqova Yulduz Ortiqniyazovna

mustaqil izlanuvchi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya: Maqolada ona tili darslarida ta'limi o'yinlarning ahamiyati va ularning o'quvchilarning nutqini rivojlantirishdagi roli tahlil qilindi. O'yinli metodlar orqali o'quvchilarning grammatik bilimlari mustahkamlanadi, mantiqiy fikrlash qobiliyati oshiriladi va ijodiy qobiliyatları rivojlantiriladi. Maqolada "Jumani davom ettir", "Bog'lovchi kerak menga", "Gaplarni tartibla", "Vizual kartalar" va "Ters" kabi o'yinlarning metodik jihatdan qo'llanishi keltirilgan. Bu metodlar ona tili darslarida samarali o'qitishni ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ona tili, ta'limi o'yinlar, nutq mahorati, grammatik bilim, mantiqiy fikrlash, ijodiy qobiliyat.

Ona tili darslarida o'quvchilarning nutq mahoratini rivojlantirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va ijodiylik faolligini oshirish uchun ta'limi o'yinlardan foydalanan zamonaviy ta'limda muhim o'rinn tutadi. O'yinlar o'quvchilarning diqqatini jalg qilish, bilimni qiziqarli tarzda o'zlashtirish va o'quv dastur materiallarini yaxshi eslab qolish imkoniyatini beradi. Bu maqolada ona tili darslarida qo'llaniladigan ta'liy o'yinlarning metodologik jihatlari, ularning o'quvchilarning nutqini rivojlantirishdagi roli va samaradorligi tahlil qilindi.

Ta'limi o'yinlar ona tili darslarida quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

- Grammatik bilimlarni mustahkamlash (grammatik tuzilmalarni to'g'ri ishlatish);
- Nutq mahoratini oshirish (fikrlarni aniklq, ravon va mantiqan to'g'ri ifodalash);
- Mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish (gaplarni bog'lovchi vositalar orqali bir-biriga bog'lash);
- Ijodiylikni oshirish (vizual materiallardan foydalanib yangi gaplar tuzish).

VOLUME-3, ISSUE-2

Ona tili darslarida qo'llaniladigan o'yinli metodlarning turlari ko'p xususan, "Jumlan davom ettir" o'yini. Bu o'yinda o'quvchilarga gapning bir qismi beriladi, ular uni mantiqiy davom ettirishi kerak.

Misol:

- O'qituvchi: "Agar yomg'ir yog'sa..."
- O'quvchi: "...men uyda qolaman".

"Bog'lovchi kerak menga" o'yini - O'quvchilar turli bog'lovchi so'zlar (agar, chunki, shuning uchun) va ularga mos yarim gaplarni to'g'ri birlashtirishlari kerak.

Misol:

- "Agar yomg'ir yog'sa" + "uyda qolaman".

"Gaplarni tartibla" o'yini - bu o'yinda gap qismlari tartibsiz beriladi, o'quvchilar ularni to'g'ri tartibda qayta tiklashi kerak.

Misol:

- Noto'g'ri tartib: "uyda qolaman, agar yomg'ir yog'sa".
- To'g'ri tartib: "Agar yomg'ir yog'sa, men uyda qolaman".

"Vizual kartalar" o'yini - O'quvchilarga turli rasmlar beriladi, ular bu rasmlarga mos ergashgan qo'shma gaplar tuzishi kerak.

Misol:

- Rasm 1: Yomg'ir yog'ayotgan manzara.
- Rasm 2: Bolalar uyda o'ynayotgan manzara.
- Tuzilgan gap: "Agar yomg'ir yog'sa, bolalar uyda o'ynaydi".

Ta'limiy o'yinlar nafaqat didaktik, balki psixologik va ijtimoiy jihatdan foydalidir. Ona tili darslarida ta'limiy o'yinlarni qo'llash o'quvchilarning nutq mahoratini, mantiqiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Axmedova, M. (2018). «O'zbek tilida ergashgan qo'shma gaplar». Toshkent: O'zbekiston Nashriyoti.

VOLUME-3, ISSUE-2

Begmatov, S. (2015). «Tilshunoslik asoslari». Samarqand: SamDU Nashriyoti.

Karimov, I. (2016). «O'zbek tilining grammatik qoidalari». Toshkent: O'qituvchi Nashriyoti.

Toshmatova, G. (2020). «Til o'qitish metodikasi». Andijon: Andijon Nashriyoti.

Azimov, B. (2019). «O'zbek tilida sintaksis va semantika». Toshkent: O'qituvchi Nashriyoti.

Mahmudova, D. (2020). «Til o'qitishda interfaol usullar». Toshkent: Innovatsion Ta'lif Nashriyoti.

Qodirova, Z. (2020). «Ergashgan gaplar va ularni o'qitish metodikasi». Toshkent: O'qituvchi Nashriyoti.

“O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim”. Umumta'llim maktablari o'qituvchilari uchun o'quv modullari, 1-modul, Toshkent-2013-yil.

Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. - T.:O'qituvchi, 1980.66-bet

Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. - T.:Sharq, 2000. 110-bet

Muhiddinov A.G' O'quv jarayonida nutq faoliyati. - T.: O'qituvchi, 1995. 78-bet